

ENERGETIKA VAZIRLIGI, "O'ZKIMYOSANOAT" AJ VA ACWA POWER O'RTASIDA YASHIL AMMIK ISHLAB CHIQRISH BO'YICHA INVESTITSION HAMKORLIK TO'G'RISIDA BITIM IMZOLANDI

// 23.12.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/energetika-vazirligi-uzkimyosanoat-aj-va-acwa-power-bitim-imzolandi>



Toshkent shahri mezbonlik qilayotgan O'zbekiston Respublikasi - Saudiya Arabistoni Podshohligi biznes-forumi doirasida 2022-yilning 23-dekabr kuni Energetika vazirligi, "O'zkimyosanoat" AJ va ACWA Power (Saudiya Arabistoni) o'rtasida yashil ammiak ishlab chiqarish bo'yicha investitsion hamkorlik to'g'risida "Asosiy Shartlar" (Heads of Terms) bitimi imzolandi. Unga ko'ra yashil ammiak ishlab chiqarish loyihasi 2 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich - yashil vodorod loyihasi bo'lib, yiliga 3,0 ming tonna yashil vodorod ishlab chiqarish

quvvatiga ega bo`ladi. Loyiha qiymati esa 17,0 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Mazkur loyihani amalga oshirish doirasida "Maxam-Chirchiq" AJ zavodiga 20,0 MW quvvatli elektrolezvor uskunasi o`rnatiladi va vodorod ishlab chiqarishda tabiiy gaz o`rniga suvdan foydalaniladi.

Ikkinchi bosqich - yashil ammiak loyihasi bo`lib, yiliga 500,0 ming tonna yashil ammiak ishlab chiqarish ko`zlangan. Mazkur loyihani amalga oshirish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda iqtisodiy va texnik o`rganishlar olib boriladi. O`rganishlar ijobiy natija ko`rsatgan taqdirda, qiymati 4,0 mlrd AQSH dollari bo`lgan ushbu yirik investitsion loyihaga start beriladi.

Yuqorida sanab o`tilgan loyihalarni amalga oshirish va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur elektr energiyasini ta`minlab berish maqsadida loyihalar doirasida Energetika vazirligi va ACWA Power ishtirokida alohida, shamol/quyosh elektr stansiyasi barpo etiladi. Natijada har yili qariyb 1,0 mlrd metr kub tabiiy gaz iqtisod qilinadi hamda mamlakatimizning kimyo sohasini dekarbonizatsiya qilinishida sezilarli natijalarga erishiladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati







  uzkiyosanoat

  uzkiyosanoat.uz

 (+99878) 140-74-26



